

## GRADUONIMIYA HODISASINING NAZARIY VA AMALIIY ASPEKTD TAHLILI (INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI MATERIALI ASOSIDA)

**Gulnoza Narmurodova**

O'zDJTU Umumiy tilshunoslik kafedrasida dotsenti, (PhD)

E-mail: [G.IIhomovna@gmail.com](mailto:G.IIhomovna@gmail.com)

**Annotatsiya.** Mazkur ilmiy tahlil leksik-semantik munosabatlarning turlaridan biri bo'lgan graduonimiya hodisasining ingliz va o'zbek tilshunosligidagi tadqiqi masalasiga bag'ishlanadi. Chog'ishtirilayotgan tillarda darajalanish hodisasining nazariy va amaliy tahlili faktologik materiallar asosida dalillanadi.

**Kalit so'zlar:** graduonimiya, giponimiya, partonimiya, funksionimiya, sinonimiya, leksema, denotat.

### KIRISH

Bugungi kunda tilshunoslik ilmi turli xil yo'nalishlarda tahlil qilinmoqda. Til ilmi dinamik ravishda rivojlangani sari unda yangidan yangi nazariy va amaliy g'oyalar olimlarimiz tomonidan fanga olib kirilmoqda. Tilshunoslik ilmining dastlabki bosqichlarida, leksika tafsiviga bag'ishlab yaratilgan ayrim monografiya, darslik va o'quv qo'llanmalarda leksemalar o'rtasidagi semantik munosabatlar sifatida faqatgina sinonimiya va antonimiya hodisasi ko'rsatib kelingan. Bu holat o'z-o'zidan leksik birliklar tahlilida muayyan cheklanish hisoblanadi.

Hozirgi kunda jahon tilshunoslik ilmida leksemalar o'rtasidagi semantik munosabatlarning yana boshqa turlari haqida ma'lumot berilgan va ular yuzasidan izchil tadqiqotlar yaratilgan. Mamlakatimizda til ilmiga e'tibor siyosat darajasiga ko'tarilganidan so'ng tilshunoslik ilmida ham bu borada izlanishlar yuzaga kela boshladi. Xususan, E.Begmatov, H.Ne'matov, R.Rasulovlarning maxsus maqolasida leksik makrosistema va uni tashkil qiluvchi komponentlar tahliliga e'tibor qaratilgan<sup>3</sup>. R. Safarova "Leksik-semantik munosabatlarning turlari" nomli o'quv adabiyotida giponimiya, graduonimiya, partonimiya, funksionimiya, iyerarxionimiya terminlarini tahlil qiladi<sup>4</sup>.

Tilshunos olimi J. Sh. Djumabayeva ilmiy izlanishlarida graduonimiya hodisasini o'zbek va ingliz tillari materiallari asosida chog'ishtirma aspektida tadqiq etadi. Olima graduonimiya hodisasini leksik-semantik xususiyatlarini tahlil qiladi hamda fanda mikrograduonimiya va makrograduonimiya terminlarini asoslaydi<sup>5</sup>.

Dunyo tilshunosligi rivojlanayotgan, taraqqiy etayotgan bir davrda turli nazariyalar va g'oyalar ham yaratilmoqda. Kognitiv tilshunoslikning yetakchi yo'nalishlaridan biri kognitiv semantikaning paydo bo'lishi leksik semantika sohasidagi tadqiqotlar natijalariga, tilning so'z boyligini tushunchalar asosida tizimlashtirish va turkumlashtirish imkoniyatlariga yangicha nazar bilan qarashga imkon yaratdi deyishimiz mumkin.

### TADQIQOT METODOLOGIYASI

<sup>3</sup> Begmatov E., Ne'matov H., Rasulov R. Leksik makrosistema va uning tadqiq metodikasi (Sistem leksikologiya tezislari) // O'zbek tili va adabiyoti. 1989, №6.-B.35- 40.

<sup>4</sup> Safarova R. Leksik-semantik munosabat turlari. Toshkent: O'qituvchi, 1996. – B. 19-23.

<sup>5</sup> Джумабаева Ж. Турли тизимли тилларида лексик ва стилистик градуонимия. Монография. – Тошкент, 2017. – 210 б.

Ilmiy tahlilni amalga oshirish jarayonida diaxron metod sifatida qo'llaniluvchi chog'ishtirma, tipologik hamda sinxron tadqiqot metodlari sirasiga kiruvchi: lingvistik tavsiflash metodidan, komponent tahlil usulidan, kontekstual tahlil usullaridan foydalanildi.

### **TAHLIL VA NATIJALAR**

Tilshunoslik ilmida graduonimiya bu darajalanish hodisasi hisoblanadi. Mazkur yo'nalishda ko'plab tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Graduonimiya tadqiqot obyekti sifatida o'zbek tilshunosligida so'zlararo ma'noviy munosabatlarning bir ko'rinishi sifatida talqin etilib, unga graduonimiya hodisasi deb nom berilgan. Graduonimiya termini ilmiy tahliliga e'tibor qaratsak, "gradu" lotin tilidan olingan so'z bo'lib, "daraja, bosqich" degan ma'noni anglatadi. Graduonimiya bu - leksemalarning ma'no guruhlarida biror belgining darajalanish hodisasi<sup>6</sup>.

O'zbek tilshunosligida graduonimiya hodisasi partonimiya, giponimiya kabi yondosh tushunchalarga nisbatan ancha keng o'rganilgan. Graduonimik munosabat o'zbek tilshunosligida O.Bozorov, J.Sh. Jumaboyeva, Sh.Orifjonova, A.Sobirov, S.G'iyosov, E.Begmatov, H.Ne'matov, R.Rasulov, R.Safarova, M.Narzieva, M.Fayzullayevlar tomonidan tadqiq qilingan.

Graduonimiya hodisasini chog'ishtirilayotgan ingliz va o'zbek tillarida turli mavzular asosida, amaliy aspektda tahlil qilishimiz mumkin.

#### **1. Uy-ro'zg'or jihozlarining darajalanish holati chog'ishtirilayotgan tillarda quyidagicha tahlil qilindi:**

O'zb.t:

*Yupqa va qalinlik darajasiga ko'ra uy-ro'zg'or jihozlarining darajalanishi:*

*Sholcha - namat - palos - gilam;*

*O'tkir tig'lilik sifatiga ko'ra jihozlarning darajalanishi:*

*Qaychi - pichoq- hanjar - chopqi - bolg'a - bolta - tasha - ketmon.*

Ing.t:

*Grading of equipment according to the quality of sharpness:*

*knife - grinde-dagger-bolo.*

#### **2. Chog'ishtirilayotgan ingliz va o'zbek tillarida bola leksemasining darajalanish holati quyidagicha tahlil qilindi:**

O'zb.t:

*Chaqaloq-go'dak-bola-o'smir -o'spirin - yigit- erkak- kishi-chol.*

Ing.t:

*Baby- toddler - child - teenager - adult - elderly.*

Yuqoridagi ma'lumotlardan xulosa qilish mumkinki ingliz va o'zbek tillarida turli mavzular leksikasida graduonimiya ya'ni darajalanish hodisasi kuzatiladi. Partonimiya hodisasi - butun (xolonim) va bo'lak (meronim) sifatida namoyon bo'lsa, giponimiya hodisasida leksemalar o'rtasida tur va jins munosabatining mavjudligidir. Mazkur terminologik qatlam real borliqda mavjud bo'lgan, ko'p sonli paradigmalardan tarkib topgan, murakkab leksik sistemani tashkil etadi.

### **XULOSA**

Ba'zi izlanuvchilar uchun graduonimiya va sinonimiya hodisalari o'rtasidagi farq qiyinchilik vujudga keltiradi. Sistem leksikologiya nuqtai nazaridan qaraladigan bo'lsa,

<sup>6</sup> Djumabaeva J.Sh. O'zbek va ingliz tillarida leksik hamda stilistik graduonimiya. Filol. fanlari doktori diss...avtoref. -Toshkent, 2016. - B. 7.

graduonimik munosabatdagi leksemalar denotatida o'zgarish bo'lishini kuzatish mumkin bo'ladi. Sinonimik munosabatdagi leksemalar denotatida o'zgarish bo'lmaydi. Mazkur xususiyat asosida graduonimiya hodisasi sinonimiya hodisasidan farqlanadi.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Begmatov E., Ne'matov H., Rasulov R. Leksik makrosistema va uning tadqiq metodikasi (Sistem leksikologiya tezislari) // O'zbek tili va adabiyoti. 1989, №6.-B. 35-40.
2. Бозоров О. Ўзбек тилида даражаланиш: филол. фан. докт. ... дисс. – Тошкент, 1997. – 270 б.
3. Djumabaeva J. Sh. O'zbek va ingliz tillarida leksik hamda stilistik graduonimiya. Filol. fanlari doktori diss...avtoref. – Toshkent, 2016. – B. 7.
4. Orifjonova Sh. O'zbek tilida lug'aviy graduonimiya. Filol. fanlari doktori diss...avtoref. –Toshkent, 1996.
5. Safarova R. Leksik-semantic munosabat turlari. – Toshkent: O'qituvchi, 1996. – B. 19-23.